



## Forming the Creative Skills of Primary Class Students on the 4k Model

**Sayliyeva Mashkura Mukhtor kizi**

Teacher of primary education methodology  
Chirchik State Pedagogical University

**Abstract:** The article discusses the issue of forming the creative skills of primary school students on the 4K model

**Key words:** elementary, education, skills, 4K, creativity, knowledge, skills, approach, methodology.

## Boshlang'ich Sinf O'quvchilarining 4k Modeli Bo'yicha Kreativ Ko'nikmasini Shakllantirish

**Sayliyeva Mashkura Muxtor qizi**

Boshlang'ich ta'lif metodikasi o'qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kreativ ko'nikmasini shakllantirish masalasi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich, ta'lif, ko'nikma, 4K, kreativlik, bilim, as in, yondashuv, metodika.

"O'zbekiston 2030" strategiyasida boshlang'ich ta'lifning sifatli rivojlantirish asosi sifatida o'quvchilarining ko'nikmasini shakllantirish qo'yilgan.[1]. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha ko'nikmlarini shakllantirish boshlang'ich ta'limda o'zlashtirishning sifat ko'rsatkichlariga



erishishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi.[2].Bu o'rinda e'riboringizni 4K modeli bo'yicha *kreativ* ko'nikmasini shakllantirish masalasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Kreativ ko'nikmasi 4K modelining negizlaridan birini tashkil qiladi."Kreativ" tushunchasi lotincha bo'lib ijodiylik,yaratuvchanlik kabi ma'nolarni anglatadi.[3].Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ ko'nikmasini shakllantirishda ularning ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

***Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy yondashish ko'nikmasini shakllantirish.*** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kreativ ko'nikmasini shakllantirishda ularning ijodiy yonshavini tarkib toptirish muhim o'rin tutadi.Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) uy vazifalarini ijodiy bajarishga o'rgatish;
- 2) voqelik va hodisalarini ijodiy qabul qilishga ko'niktirish;
- 3) ijodiy munosabatini tarkib toptirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ ko'nikmasini shakllantirishda ularni uy vazifalarini ijodiy bajarishga o'rgatish muhim o'rin tutadi.Bunda aniq,tabiiy va gumanitar o'quv fanlari bo'yicha berilgan uy vazifalarini o'quvchi erkin yondashuv asosida bajarishga ko'niktirilishi kerak.Shu sababli uy vazifalarini ijodiy bajarishga ko'niktirish uchun ularni erkin yondashuv, qiziqish va faoliyatga yo'naltirish maqsadga muvofiq boladi.Aslida har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida ijodiylik ko'nikmasi bor bo'lib, bu ko'nikma rivojlantirilishi taqazo etiladi.Shu sababli oiladagi katta yoshlilar va ota-onalar uy vazifalaini bajarishda o'quvchilarini yo'naltirish vazifasini bajarishi kerak.Aksincha,boshlang'ich sinf o'quvchilarining uy vazifasini bajarib berish ularning ijodiylik ko'nikmasini turg'unlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ ko'nikmasini tarkib toptirishda ularni voqelik va hodisalarini to'gri hosil qilishga ko'niktirish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari yaxshi va yomoni farqlash,murakkab hodisalardan qo'rmaslik va voqelikni to'g'ri qabul qilishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari muayyan



murakkablik qarshisida esankirab qolmaslikka o'rgatilishi muhimdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi mavzularni o'zlashtirishda murakkablikka ko'p duch kelishadi. Shu sababli ularni bunday murakkabliklardan cho'chimaslikka o'rgatish voqelik va hodisalarini to'g'ri qabul qilishga ko'niktirishning muhim omili hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ yondashuvga o'rgatishda ularda har narsaga ijodiy munosabatni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda ijodiy munosabat-bu muarakkabliklarni yengish,turli vaziyatlardan cho'chimaslik va fikr vositasida munosabatda bo'lish majmuidir.Bunday ko'nikmalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida dars mashg'ulotlari,tarbiyaviy tadbirlar,sinfdan va mакtabdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida tarkib toptiriladi.Buning uchun boshlang'ich sinf rahbarlarining faol bo'lishiga ehtiyoj seziladi.Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilaridan ijodiy munosabatni tarkib toptirish uchun o'qituvchilar faoliyati sinf rahbarlari tomonidan yo'naltirilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa,boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy yondashish ko'nikmasini tarkib toptirish uchun ularni uy vazifalarini mustaqil bajarishga,voqelik va hodisalarini to'g'ri qabul qilishga hamda ularda ijodiy munosabatni tarkib toptirishga o'rgatish muhim o'rinn tutadi.Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilar as inf rahbarlarining mahsus yondashuvlariga ehtiyoj seziladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish .Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kreativ ko'nikmasini shakllantirishda ularda ijodiy fikrlashni tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega.Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) fikrlashga o'rgatish;
- 2) fikrini bayon qilishga o'rgatish;
- 3) izlanishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishning muhim omillaridan biri ularni fikrlashga ko'niktirishtidir.Buning uchun o'quvchilar har bir masala bo'yicha fikrlashga o'rganishi,o'zining fikrini himoya qilishi va bilmaganlarini so'rab o'rganishi muhim ahamiyatga egadir.Misol uchun,boshlang'ich sinf



o'quvchilari bilmaganlarini so'rab o'rganishga ko'nikishi muhim masala hisoblanadi. Anyan bilishga intilish fikrlashning asosi ekanligi ma'lum. Shu sababli so'zlayotgan o'quvchilarning so'zini bo'lmaslik va uni tinglash bilan fikrlashga o'rgatish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishda ularni o'z fikrini bayon qilishga o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z fikrini bayon qilishda tortinmaslik, uyalmaslik yoki noto'g'ri so'zlashdan cho'chimaslikka o'rgatilishi kerak. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'p hollarda noto'g'ri so'zlashdan chochishadi. Chunki ularda notogri gapirib qoyamanmi, degan fikr mavjud bo'ladi. Shu sababli bizning yonashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi so'zamon bo'lsa u fikrlaydi. Aynan mana shuning vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z fikrini bayon qilishga o'rgatish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishning muhim asoslaridan biri ularni ijodiy izlanishga o'rgatishdir. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziqishi, layoqati va harakatchanligiga ko'ra izlanishga o'rgatiladi. Biror topshiriq berish vositasida ularni izlanishga yo'naltirish mumkin. Misol uchun, Tasviriy san'at o'quv fani bo'yicha rasm chizish topshirig'ini berish bilan ularni ijodiy izlanishga yo'naltirish mumkin. Chunki o'quvchilar rasm chizishda rang tanlash, obyektni tasvirlash va mustaqil yondashish vositasida ijodiy izlanadi. Shu sababli ijodiy izlanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni tarkib toptirishning muhim asosi hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun ularni fikrlashga o'rgatish, o'z fikrini mustaqil bayon qilishga ko'niktirish va ularni ijodiy izlanishga yo'naltirish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarining maxsus yondashuvi taqazo etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishda shu tariqa ularda ijodiy yondashish va ijodiy fikrlashni tarkib toptirish muhim vositalardan hisoblanadi. Buning uchun maxus yondashish taqazo etiladi.



Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kreativ ko'nikmasini tarkib toptirishda ijodiy yondashish va ijodiy fikrlash,yo'naltirish va maxsus yondashish muhim ahamiyatga ega.Mazkur masalaning nazariy va metodik mexanizimlarini ishlab chiqish dolzar bo'lib turibdi.

**Adabiyotlar:**

- 1."O'zbekiston-2030"strategiyasi./[www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).
- 2.Hasanboyev J va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent,2009
- 3.Jabborova O.Individual yondashuv texnologiya assosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasi- Chirchiq,2023